

CHET TILI DARSLARIDA GURUH BO‘LIB ISHLASHNING AHAMIYATI

Axtyamov Azizboy (PhD),

Farg‘ona davlat universiteti nemis va fransuz tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Shahlo Mirzajonova,

Farg‘ona davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy metodlarni, chet tili darslarida qo‘llash, darslarda noan'anaviy yondashuv, kommunikativ metodlardan foydalanishning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: metodlar, guruh bo‘lib ishlash, hamkorlikda ishlash, interfaol usullar, zamonaviy darsliklarda mashq va topshiriqlar.

Аннотация: в данной статье говорится о важности использования нетрадиционного подхода коммуникативных методов на уроках иностранного языка.

Ключевые слова: методы, групповая работа, совместная работа, интерактивные методы, упражнения и задания в современных учебниках.

Annotation: This article talks about the importance of using modern methods in foreign language classes, nontradional approach in classes and the use of communicative methods.

Key words: methods, group work, cooperative work, interactive methods, exercises and tasks in modern textbooks.

Mening bir orzuyim bor!

“Jamiyatimizda O‘qituvchi degan kasb, barcha iqtidorli yoshlar orzu qilib tanlaydigan kasb bo‘lsin.”

Hozirgi kunda o‘qituvchi Ustozlar o‘z ustilarida ishlab tinimsiz mehnat qilmoqdalar. Xususan chet tillarini o‘rganishga qaratilgan chora-tadbirlar tobora avj olmoqda. Darslarda noan'anaviy metodlarga tayanib,dars olib borish ilgari surilmoqda. Avvalari dars markazida ko‘pincha o‘qituvchi bo‘lgan. U faqat darsliklardan foydalnib dars o‘tgan. Endilikda noan'anaviy darslar bo‘lib, jarayon markazida o‘qituvchi emas, o‘quvchilardir. Bu juda ham a’lo natija. Chunki o‘quvchilar tinimsiz harakat qiladilar, bo‘s sh qolmaydilar. Ustozlar esa ularga razm

solib, yordam berib yo‘naltiradilar. Turli xil yangi ko‘rgazma, o‘quv-materiallar orqali dars o‘tadilar. Hozirda darsliklar juda ham sifatli bo‘lib, chet tili fani uchun o‘quv qo‘llanmalar, o‘zimizda hamda chet davlatlardan kelmoqda. Chet tili darslarini o‘rganishda bir qancha metodlar bo‘lib, ular: kommunikativ, tarjima, audiolingual, audiovizual bu metodlar dars sifatini yanada yaxshilanishiga, o‘quvchilarda darsga nisbatan qiziqish, muhabbat uyg‘otishga katta yordam beryapti. Aytaylik nemis tili darsi;darsda qaysi ijtimoiy usullardan foydalanishimiz mumkin? Biz darsda ommaviy ishlashimiz,guruh bo‘lib,juft bo‘lib ishlashimiz mumkin.Bu ijtimoiy harakatlar o‘quvchilarda ham harakat, ham aqliy hujum qilishga undaydi. Guruh bo‘lib ishlaganda muloqot darajasi o‘sadi.Chet tilida ravon gapirishni o‘rganadi, o‘z fikrini qo‘rmasdan bildirishga, aytishga o‘zida kuch topadi. Mashq va topshiriqlarni birgalikda bajaradilar. Guruh bo‘lib ishslash chet tili darslarini muvofaqiyatga yetaklaydi: guruh bo‘lib ishslashda kamida uch kishi, yoki besh kishidan iborat bo‘lishi kerak. Undan ortiq emas. Bu besh a'zoning o‘zining vazifalari bor albatta. Guruhda Moderator-boshqaruvchi, Zeitmanager-vaqtini taqsimlovchi, Beobachter-kuzatuvchi, Protokollant-yozuvchi hamda Reporter-taqdimot qiluvchisi bo‘lishi kerak. Bunda asosiy kuch boshqaruvchi hamda taqdimot qilayotgan o‘quvchidir. Taqdimot qilayotgan o‘quvchi guruh ishini qanday olib borganini batafsil aytib ko‘rsatib beradi. Xulosa sifatida shuni aytish kerakki: Til bilgan-el biladi, chet tillari bu imkoniyat demakdir. O‘qib bilim, ilm olganimiz sari, dunyoqarashimiz kengayib boraveradi. Vaqtan unumli foydalanishni o‘rganamiz. Guruh bo‘lib ishslashning afzalliklari shundan iboratki, guruh bo‘lib ishlaganda o‘quvchilar fikr almashadi, bir birini eshitishni o‘rganadi, yordam berishni o‘rganadi, nutq darajasi o‘sadi, o‘z fikrini cho‘chimasdan ayta oladi. Va yana albatta turli vaziyatlardan muammosiz chiqishni o‘rganadilar.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. „DLL“2,3,4, <https://kompy.info>
- 2.,„Erfolgreiches Social Media Marketing“ Michael Ceyp Juhn-Petter Scupin.

3. Akhtyamov A. ANALYSIS OF TEXT PROPERTIES ON THE EXAMPLE OF ADVERTISING //Конференции. – 2020.
4. Ахтямов А. Э. РЕКЛАМНЫЕ ТЕКСТЫ И ИХ ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 131-135.
5. Akhtyamov A.E. ОСОБЕННОСТИ ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА ТЕЛЕВИЗИОННОЙ РЕКЛАМЫ // The Way of Science. – 2022. Т. 6. № 100. – С. 54-55.
6. Akhtyamov A.E. АНАЛИТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ТРАНСКРИПЦИИ РАЗГОВОРОВ ПРИ ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКОМ АНАЛИЗЕ ТЕЛЕВИЗИОННОЙ РЕКЛАМЫ // The Way of Science. – 2022. Т. № 100. – С. 51-53.
7. Akhtyamov A.E. ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОСТАВНЫХ ЧАСТЕЙ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТОВ // FarDU. ILMIY XABARLAR. – 2022. – С. 222-225
8. Ахтямов А. Э. РЕКЛАМНЫЕ ТЕКСТЫ И ИХ ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 131-135.
9. Ахтямов А. Э. СВОЙСТВА РЕКЛАМНОГО ТЕКСТА //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 128-130.
10. Ахтямов А. Э. РЕКЛАМНЫЕ ТЕКСТЫ И РАЗВЕРТЫВАНИЕ ТЕМЫ В РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – Т. 2. – №. 22. – С. 123-126

11. Ахтямов, А. (2023). SEVEN CRITERIA OF TEXTUALITY IN PRAGMALINGUISTIC ANALYSIS OF ADVERTISING TEXTS. Scientific Journal of the Fergana State University, 29(1), 206
12. Ахтямов А. Э. РАЗВЕРТЫВАНИЕ ТЕМЫ В РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ. JOURNAL OF AGRICULTURE & HORTICULTURE. – 2023. С.103-107.